

“QUTADG‘U BILIG” DOSTONIDA TA‘LIM-TARBIYA MASALALARI

Gulinor Xolmurotova Azmiddin qizi

Termiz davlat universiteti O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostoni Sharq mumtoz adabiyoti didaktik asarlarining yorqin namunasi hisoblanadi. Maqolada mazkur asarning yozilish tarixi, bosh qahramonlar tasviri, didaktik ruhdagi asar sifatida ta‘limiy-tarbiyaviy ahamiyati borasida fikr-mulohazalar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u bilig”, didaktik asar, ramziylik, ta‘limiy-axloqiy qarashlar.

“Qutadg‘u bilig” dostoni turkiy tilda yozilgan ilk asar bo‘lib, uning muallifi XI asrda yashab ijod etgan Yusuf Xos Hojib turkiy tilda yaratgan ushbu asari bilan mashhur tarixiy siymo sifatida e‘tirof etiladi. Mazkur asarni adib hijriy 462 – milodiy 1069-1070-yillarda yozib tugatadi. “Qutadg‘u bilig” dostoni Qoraxoniylar davlati hukmdori tomonidan tahsinga sazovor bo‘lgani uchun donishmand adib “xos hojib”, ya‘ni “eshik og‘asi” rasmiy davlat lavozimi bilan taqdirlangan. Asar muayyan tasavvur bera olishi bilan ilmiy jihatdan qimmatli bo‘lsa, didaktik yo‘nalishda yaratilganligi esa insonlar hayotida amaliy dastur bo‘la olishi bilan qadrlidir. “Qutadg‘u bilig” (“Baxt-saodatga eltuvchi bilim”) o‘z nomiga munosib tarzda insonni saodatga yo‘llovchi go‘zal fazilatlarni targ‘ib qilgan.

Shu o‘rinda didaktik adabiyot so‘ziga ta‘rif berib o‘tsak. Didaktik adabiyot (yun. didaktikos – o‘rgatuvchi, ta‘limiy) – muayyan ta‘limiy, tarbiyaviy maqsadlarda yaratilgan adabiy asarlarning umumiy nomi. Adabiyotning ta‘limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari juda katta bo‘lib, unga qadimdayoq e‘tibor qaratilgan. Didaktik adabiyot namunalari mavzu e‘tibori bilan turlicha, ular nimani o‘rgatishni maqsad qilgani jihatidan bir-biridan farqlanadi. Sharq mumtoz adabiyotidagi didaktik adabiyotning yaxshi namunalari sifatida Sa‘diyning “Guliston” va “Bo‘ston”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, Boburning “Mubayyin” kabi pandnoma ruhidagi asarlarini ko‘rsatish mumkin. Mazkur asarlar mazmun-mundariyasi jihatidan universal bo‘lib, turli darajadagi ijtimoiy munosabatlar, insonning burchi va vazifalari, dunyo va oxirat, e‘tiqod, odob-axloq, ilmning ahamiyati kabi hayotda zarur turfa masalalardan bahs yuritadi. [3:91]

“Qutadg‘u bilig” o‘z vaqtidayoq Sharq mamlakatlariga keng tarqalgan va katta shuhrat qozongan. U qaysi iqlimga yetib borgan bo‘lsa, donishmandlari shunday nom berdilar: chinliklar “Odob ul-mulk” deb, Mochin odshohining nadimlari (hamsuhbatlari) “Oyin ul-mamlakat” deb ataydilar, mashriqliklar “Ziynat ul-umaro” deb, eronliklar “Shohnomayi turkiy” deb, ba‘zilar “Pandnomayi muluk” deb, turonliklar “Qutadg‘u bilig” deb aytdilar. [4:167] Fikrimizning dalili sifatida quyidagi misralarni keltirish mumkin:

Chiniylar “Adab ul-muluk” deb atar.

Mochinlar “Anis ul-mamolik” deyar.



Bu Mashriq elining donishmandlari

“Ziynat ul-umaro” deyishdi bari.

Eronlik “Shohnoma” dedi belgilik,

Turonlik nom qo‘ydi: “Qutadg‘u bilig”.

Asar so‘ngida ilova qilingan qasidalarda o‘z aksini topgan ma‘lumotlarda doston yozilgan muddat (“Tugal o‘n sakkiz ayda aydim bu so‘z”), yozib tugatilgan sana (“Yil altmish eki erdi to‘rt yuz bila”) kabi qimmatli ma‘lumotlar joy olgan. Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig”ni Tavg‘ach ulug‘ Bug‘ro Qoraxon abo Ali Hasan binni Arslonxonga bag‘ishlaydi.

Dostonda to‘rtta asosiy qahramon bo‘lib, ularning har biri muayyan ezgu tushuncha – ma‘naviy qadriyatlarning timsoli yanglig‘ gavdalanadi. Adolat, davlat, aql-idrok va qanoat (ofiyat) singari ramziy tushunchalar har bir qahramon xatti-harakatlari, o‘y-fikrlari va gap-so‘zlari orqali kitobxon qalbidan joy oladi.

Kuntug‘di – mamlakat eligi (hukmdori) “mamlakatni boshqaradigan inson adolatli bo‘lmog‘i lozim”, “bekning adolatli bo‘lishi elning tinch-totuvlikda, rohat-farog‘atda yashashiga kafolat bo‘ladi” kabi ilgari surilgan g‘oyalar va harakatlar bilan adolat timsoli deya ulug‘lanadi. Shuningdek, haqiqatgo‘y hukmdorning bilimli, dono va bahodirligi adib tomonidan “qilmishlari to‘g‘ri, fe‘l-u raftori rost, tili chin, yetuk, ko‘zi va ko‘ngli boy, bilimli, zakovatli, hushyor, yomonlarga misli bir olov edi”, - deya ta‘riflanadi.

Oyto‘ldi Kuntug‘dining huzuriga borganda uning uch oyoqli kursida o‘tirganini ko‘rib yoqa ushlaydi. Kursining uch oyoqli bo‘lishida ham o‘ziga xos ramziylik bo‘lib, kursini to‘rtinchi oyoq sifatida eligning adolati ushlab turadi degan ma‘noni anglab olish mumkin.

Ma‘lumki, davlat boshqaruvida nafaqat bekdan, balki vazirlardan ham elparvarlik, oqillik va dovyuraklik talab etiladi. “Qutadg‘u bilig” da qalamga olingan ikki vazir har sohada ilmi, tadbirkor insonlar: hunarli, hozirjavob va oqil vazir Oyto‘ldi (“to‘lgan oy”) baxt va davlat ramzi; O‘gdulmish (“aql bilan ziynatlangan”) aql va zakovat timsoli qiyofasida tasvirlangan. Yusuf Xos Hojib Kuntug‘di va O‘gdulmish orqali “Davlat Adolat va Aql bilan boshqarilmog‘i kerak” degan muhim g‘oyani ilgari surgan. Mening nazdimda, bu ikki tushuncha nafaqat davlat boshqaruvida, balki har bir insonning hayotida muhim o‘ringa ega. Kimki hayoti davomida har bir ishga adolat va aql bilan yondashsa, insoniy fazilatlar egasi sifatida qadr topadi.

“Qutadg‘u bilig” da yana bir o‘ziga xos ramziy ma‘noga ega qahramon borki, asarni uning o‘gitlarisiz, pand-nasihatlarisiz tasavvur qila olmaymiz. O‘zg‘urmish – qanoat (ofiyat), ya‘ni sog‘lomlik ramzi. O‘zg‘urmish – taqvodor, Haqqa oshiq bo‘lgan zohid kishi. U, avvalo, din va diyonatni ustun ko‘radi. O‘zg‘urmish ismining ma‘nosi “hushyor qiluvchi”, “sergaklantiruvchi” demakdir. Shu jihatdan ham barchani kechayotgan umrning qadriga yetishga chaqiradi. O‘zg‘urmishning fikricha, yaxshi kiyim, tansiq taom, har xil o‘yin-kulgilar ortidan borish umrni behuda o‘tkazish bilan barobardir. Ushbu timsolda insonlar qalbini go‘zal xislatlar bilan bezashi lozimligi aks etgan. Demak, tanni emas, ruhni boyitish, hayotni asl mohiyatini anglash lozim.



U O'gdulmishga, dunyo senga o'zini sevdirib qo'yibdi, hamma ayblari senga fazilat bo'lib ko'rinibdi, deya ta'na qilib, dunyoning va bu dunyoda boylikka mukkasidan ketgan odamlarning quyidagi ayblarini birma-bir ko'rsatadi:

- dunyo quti Xudodan uzoqlashtiradi, qut – din ofatidir;
- bu bevafo olam – o'tkinchi, boylik kibr-havo orttirishiga olib keladi, bu dunyo nima bergan bo'lsa, tezda yana qaytib oladi;
- dunyo – ko'lanka, izidan borsang, qochadi, sen qochsang, izingdan boradi;
- bu dunyoning qiliqlari – jafo, qilmishlari – bevafoqlik, begi bilan uch oy ham turmaydi;
- bu dunyoning quyidagi uchta narsadan boshqa narsasi yo'q: biri – halol, ikkinchisi – shubha, uchinchisi – haromdir;
- bu dunyoda odam – g'ofildir;
- xotin, o'g'il-qiz tashvishini tortmoq mashaqqat bo'ladi, kishi kuchini uzadi;
- bu dunyoning yovi uch narsadir: halovat bilmaslik, nafsga qul bo'lish, diyonatga xiyonat qilish;
- bu dunyoning narsasi (ya'ni boyligi) sho'r suvga o'xshaydi, odam qancha ichsa ham qonmaydi, tili namlanmaydi;
- dunyo ishi sarobdir, kishi tutayin deb qo'l uzatsa, yo'qotadi. [4:181]

O'gdulmish ham o'z navbatida O'zg'urmishga jamiyatning turli tabaqalaridagi insonlarga bo'lgan munosabat, o'sha tabaqalarning jamiyatda tutgan o'rni kabi moddiy, maishiy va ma'naviy masalalar to'g'risida o'git beradi. Jumladan, beklarga xizmat qilmoq yo'l-yo'riqlari, saroy ahli bilan suhbat, oddiy xalq bilan aralashib yurish zarurligi, olimlar, tabiblar, tush ta'bir qiluvchilar, yulduzchilar, shoirlar, dehqonlar, savdogarlar, chorvadorlar, hunarmandlar singari toifalar bilan qanday munosabatda bo'lish, uylanish, bola tarbiyasi, xizmatkorlarga ezgu munosabat, mehmonga borish va mehmon kutish qoidalari to'g'risidagi o'gitlarni uqtiradi. Bevosita, bu suhbatlarda falsafiy masalalar bilan axloqiy-ta'limiy, ijtimoiy-siyosiy masalalar uyg'unlashtiriladi. Adib o'zi aytmoqchi bo'lgan pand-nasihatlarini O'gdulmish va O'zg'urmishning oltinga teng so'zlari orqali o'quvchiga yetkazadi.

“Qutadg'u bilig” – didaktik ruhdagi, ta'lim-tarbiya, odob-axloq mavzusiga bag'ishlangan asar. Asrlar osha tarbiyaviy ahamiyati yuksala borayotgan “Qutadg'u bilig” dan komillik shartlari, umrni behuda o'tkazmaslik, doimo adolat va aql bilan ish ko'rish lozimligini o'rganish mumkin. Asar orqali kitobxonida hayotda tatbiq qilish mumkin bo'lgan ko'pgina foydali tushunchalar bilan tanishish imkoniyati paydo bo'ladi. Xususan, rahbar ma'naviyatini shakllantirish va takomillashtirish, shaxs tarbiyasi, uning jamiyatda tutgan o'rni, turli mansab egalarining ma'naviy-axloqiy mezonlari bugungi kun uchun ham dolzarb bo'lgan mavzulardir. Xulosa qilib aytganda, baxt-saodat yo'llaydigan bilimlar haqida saboq beruvchi bu bebaho asar kitobxonni yuksak ma'naviyat egasi qilib tarbiyalaydi.



FOYDALANILGA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1971.
2. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007.
3. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akadernashr, 2013.
4. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017.

